

**HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUVCHILARDA KREATIVLIK  
KOMPONENTINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11181929>

**Nishonova Aziza Mirzaxmadovna**

*NAMDU tayanch- doktoranti*

**Annatatsiya:** *Mazkur maqolada hamkorlik texnologiyasi asosida o'quvchilarda kreativlik komponentini o'ziga xos xususiyatlari qisqacha yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *yaratish, xususiyat, tafakkur, Geshtalt, Irrelevantlik, kreativlik potentsial, texnologiya, hamkorlik, kreativlik, komponent, ijtimoiy zarurat, ajdod, qarash, innovatsion, ta'lif-tarbiya, omil, muvofiqlashish, sherikchilik, muvofiqlashish, kitob*

**ОСОБЕННОСТИ КРЕАТИВНОГО КОМПОНЕНТА У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ  
КОЛЛАБОРАТИВНОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

**Азиза Нишонова Mirzaxmadovna**

*Докторант НАМДУ*

**Аннотация:** В данной статье кратко описаны характеристики творческого компонента учащихся на основе технологии сотрудничества.

**Ключевые слова:** *создание, особенность, мышление, гештальт, нерелевантность, творческий потенциал, технология, сотрудничество, творчество, компонент, социальная необходимость, предок, видение, инновационный, образование, фактор, координация, партнерство, координация, книга*

**FEATURES OF THE CREATIVE COMPONENT OF STUDENTS BASED ON  
COLLABORATIVE TECHNOLOGY**

**Aziza Nishonova Mirzaxmadovna**

*Doctoral student NAMDU*

**Annotation:** *This article briefly describes the characteristics of the creative component of students based on collaboration technology.*

**Key words:** *creation, feature, thinking, gestalt, irrelevance, creativity, technology, cooperation, creativity, component, social necessity, ancestor, vision, innovative, education, factor, coordination, partnership, coordination, book*

XX asrning 50-yillaridan boshlab aqliy rivojlanishni o`rganish bilan bir qatorda kishining ijodiy qobiliyat(kreativlik) larini ham o`rganish va o`lchashga katta e'tibor berila boshlandi. Kreativlik tushunchasini 1922-yili B.Simpson umumiy qobiliyatlarni ifodalash maqsadida ilk bor qo'llagan. Kreativlik tushunchasi lotin tilidagi "creatio" so'zidan olingan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni anglatadi. Umumiyligida kreativlik ijodga bo'lgan umumiy qibiliyatlar yig'indisidan iborat. Kreativlik kishining an'anaviy chegarasidan chiqib, g'ayrioddiiy g'oyalarni, muammolarning noyob, betakror yechimini topishda namoyon bo'ladiqan qobiliyatdir.

Kreativlik haqida oltmishdan ortiq nazariyalar mavjud, ularni 1988-yili Teylor tomonidan olti guruhga birlashtirilgan.

1. Geshtalt yondashuvga ko'ra kreativ jarayon yaxlit bir butun geshtalt tuzilmadan yaxshiroq, qulayroq va eng maqbul variantini yaratish maqsadida tuzilishi.

2. Innovatsion yondashuvga ko'ra, kreativlik oxirgi natijaning yangilikiga olib boradi.

3. Estetik nazariyalar- bu yondashuv ijodkorni kreativlik orqali o'zini-o'zi namoyon etishi- ekspressiya (tashqarida ifodalash) sifatida talqin etiladi.

4. Psixoanalitik (dynamik) yondashuvga ko'ra kreativlik ong tarkibidagi "u", "men" va "super men" qismlarining o'zaro munosabatidir.

5. Muammoli yondashuvga ko'ra, turli xil vazifalarni yyechishning o'ziga xos usuli deb qaraladi. Ana shu yondashuv vakillaridan biri Gilford "...kreativlikda divergent tafakkur bo'lishi kerak", degan fikrni ilgari suradi.

6. Hech bir guruhga kiritib bo'lmaydigan, yoki aniq yo'nalishga mos bo'Imagan guruh.

M.Xolodnayaning fikricha, kreativlik keng va tor ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Tor ma'nodagi kreativlik bu divergent tafakkurdir. Keng ma'noda esa, kreativlik tushunchasi ijodiy intellektual qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, hayot tajribasiga nimadir yangilik olib kirilishi, yangi muammolarni qo'yish va hal etishidagi betakror g'oyalarning tug'ilishi, muammoni hal etishi va farazlarni shakllantirishdagi qarama-qarshilik va uзilishlarni anglash tafakkurning stereotip usullaridan voz kyechish qobiliyatidir.

Turli fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik komponentiga xos xususiyatlarni shunday ifodalash mumkin:

- ijodga qobiliyat;
- aqliy ijod;
- noyob, betakror, yangi;
- o'ziga xos xususiyatlar;
- yaxlit tuzilmalarni qayta qurish;
- axborotlarni g'ayrioddiiy tarzda koodlashtirish;
- divergent tafakkur;
- shaxsnинг ichki nizolari natijasi;
- mavjud bilimlar chegarasidan chetga chiqish;

-noan`anaviy tafakkur.

Kreativlikni irsiyat bilan bog'liqligi muammosi R.Nikols, Plomin, Grigorenko, Kochubey, Libinlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, kreativlik irsiy, genetik xususiyatlar bilan bog'liq emas degan fikrni ilgari suradilar. Bola taraqqiyotining ayrim davrlarida kreativlikning pasayishi, ayrim davrlarda esa yuqoriga ko'tarilishi mumkin.(6 yoshdan-11 yoshgacha ko'tarilish,11 yoshdan -15 yoshgacha pasayish, 15 yoshdan -25yoshgacha ko'tarilish, 25 yoshdan -30 yoshgacha pasayish, 30 yoshdan -45yoshgacha ko'tarilish) Verbal kreativlik ayollarda, noverbal kreativlik erkaklarda yuqori bo'ladi. O'ng yarim shar kuchli bo'lsa, verbal obrazli kreativlikustun, chap yarim shar kuchli bo'lsa mantiqiy kreativlik ustun bo'ladi.(tolerantlik-bag'rikenglik).

O'quvchilarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarni tadbiq etish

- O'quvchilar bilimini baholashda qo'yiladiagan talablarni yangilash;
- Ularning malakasini oshirish;
- Eng yaxshi o'quvchilarning ijodiy yangiliklarini keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'quvchidan nafaqat yuqori yaxshi o'qishni va doimiy izlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'quvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

O'quvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

O'quvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. K.Rodgers "Ijod-o'z o'zini kuchaytirish demakdir" degan asarida, ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: "Meni hayot tarzim o'zimni qoniqtiradimi yoki to'g'ri talqin etadimi? O'quvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho'qqilarga intilishi, yuqori ijodiy malakali va o'zini ijodiy tomonidan to'la namoyish etishga intilishi kreativ shaxs bo'lish" motivini uyg'otadi.

Shunday qilib kreativlik o'quvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rindi va uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

O'sib kelayotgan o'quvchining kreativlik potentsiali uning umumiyligi xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Har bir o'quvchining o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Odatda o'quvchilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari, pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

O'quvchi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rghanish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi o'quvchilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun uzoq yillar davomida poydevor qo'yiladi va ma'lum faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda o'quvchining o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017.
2. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000
4. Арефьева О.М. Особенности формирования коммуникативных универсальных учебных умений младших школьников / О.М.Арефьева // Начальная школа плюс До и После. –2015.
5. Ahlidinov R.Sh. Maktabni boshqarish san'ati. – T.: Fan, 2006.
6. Ergasheva X.Y. Teaching second language to Very Young Learners // Pedagogical Sciences/colloquim-journal#13(24) ISSN 2520-6990, December, 2018. – Pages 18-20. (Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrning xalqaro ilmiy-metrik ma'lumotlat bazalari: IndexCopernicus-ruyxat nomidagi birinchi havola raqami-23)
7. Ergasheva X.Y. Bolaga ikkinchi tilni o'rgatishning o'ziga xos xususiyati// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.– №6.– Namangan, 2019. – B. 52-56. (13.00.00. №30)
8. Ergasheva X.Y. Ikkinci tilni o'rgatishni samarali tashkil etishda hissiy muhitning ahamiyati// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.– №4.– Namangan, 2020. – B. 449-453. (13.00.00. №30)
9. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children second languages at home// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2020. Maxcyc сон. – B. 407-410. (13.00.00. № 30)

10. Dilova N.G'. Boshlang'ich ta'limda o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD). ... diss. – Nukus, 2018

11. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Дисс. ... докт. пед. наук.-Т.: 2004

12. Набиева Е.В. Мониторинг формирования научно-исследовательской компетентности учителя/ Е.В. Набиева // Стандарты и мониторинг в образовании-2008